

TEXNOLOGIK RIVOJLANISH STRATEGIYASIDA AXLOQIY BOSHQARUV VA HALOL INNOVATSIYA KONSEPSIYASI

Yormatov Ilmidin Toshmatovich 1

Annotatsiya: Maqolada innovatsion va texnologik rivojlanish strategiyalarida axloqiy boshqaruv va halol innovatsiya konsepsiyasining o'ri, ularning milliy iqtisodiyotda barqaror o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asosida axloqiy boshqaruvning innovatsion siyosatga ta'siri, hamda 2020–2024 yillarda O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Xalqaro va milliy tajribalar asosida halol innovatsiya tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: texnologik rivojlanish, axloqiy boshqaruv, halol innovatsiya, korporativ mas'uliyat, ESG tamoyillari, innovatsion siyosat.

Kirish

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida texnologik rivojlanishni boshqarishda axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Halol innovatsiya" konsepsiyasi — ya'ni faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki inson, tabiat va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan innovatsiya falsafasi — barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillaridan biriga aylandi [1].

O'zbekistonda "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da texnologik ilgarilash, raqamli iqtisodiyot va innovatsion ekotizimni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [2]. Shu bilan birga, iqtisodiy islohotlarning samaradorligi axloqiy boshqaruv madaniyatini shakllantirish va halol innovatsiya modellarini joriy etish bilan chambarchas bog'liq.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy ilmiy maktablarda axloqiy boshqaruv va texnologik rivojlanish muammosi keng o'rganilgan bo'lib, jumladan J. Drexler, M. Porter va J. Schumpeter o'z ishlari innovatsiyani iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida ta'riflaydilar. Ular innovatsiyaning faqat texnologik yoki iqtisodiy samarasini emas, balki uning ijtimoiy mas'uliyatli va axloqiy yo'nalishda bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar [3]. Porterning "umumiy qiymat yaratish" konsepsiyasiga ko'ra, korxonalar o'z innovatsion faoliyati orqali faqat bozor foydasini emas, balki jamiyat manfaatlarini ham ta'minlashi kerak. Shu nuqtai nazardan "ijtimoiy mas'uliyatli innovatsiya" atamasi shakllanib, u ESG (Ekologik, Sotsial, Boshqaruv) standartlari bilan uyg'unlashtirilgan yangi boshqaruv modeli sifatida qaraladi.

Rus olimlari orasida A. N. Danilov va Ye. G. Yakovlevaning ilmiy ishlari e'tiborga molikdir. Ular axloqiy boshqaruvni korxonaning barqaror rivojlanishi va texnologik salohiyatini oshirishdagi muhim omil sifatida ko'radilar [4]. Tadqiqotchilar

fikriga ko'ra, ESG tamoyillarini korporativ strategiyaga integratsiya qilish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki investorlar ishonchini mustahkamlaydi, jamoatchilik oldidagi shaffoflikni ta'minlaydi. Ular, shuningdek, Rossiyada ESG tamoyillarini milliy korporativ boshqaruv tizimiga moslashtirishda ma'lum metodologik qiyinchiliklar mavjudligini ham qayd etadilar.

O'zbekistonlik olimlar ham bu sohada qator ilmiy ishlar amalga oshirganlar. Xususan, R.E. Yaxshiboev va E.Ya. Yermetov E.Ya. [5] innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitali va halol boshqaruv prinsiplarining strategik ahamiyatini ta'kidlagan. X. Chen va Ryoo Johan [6] o'z izlanishlarida mamlakatdagi innovatsion muhitning huquqiy va axloqiy asoslarini tahlil qilib, milliy qadriyatlarga asoslangan "halol innovatsiya" modelini taklif etgan. Z. A. Ashurov [7] o'z ilmiy izlanishlarida innovatsion iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv tizimini axloqiy me'yorlar asosida takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, texnologik rivojlanish jarayonlarida "halol innovatsiya" tamoyillarini joriy etish korxonalarda barqarorlikni ta'minlash, ilmiy loyihalarning tijorat salohiyatini oshirish hamda xalqaro ESG standartlariga moslashishning asosiy sharti hisoblanadi. Shuningdek, Rahmonov innovatsion faoliyatda mas'uliyatli menejment, ekologik samaradorlik va ijtimoiy adolat mezonlarini kompleks tarzda joriy etishni taklif etadi.

Shunday qilib, xorijiy, rus va o'zbek tadqiqotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, axloqiy boshqaruv va ESG tamoyillari texnologik rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu tamoyillarning samarali qo'llanilishi innovatsiya jarayonlarining faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni ham ta'minlashiga xizmat qiladi.

Usullar

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, Davlat statistika qo'mitasi va Innovatsion rivojlanish agentligi ma'lumotlari asosida 2020–2024 yillar davridagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Ma'lumot manbalari sifatida rasmiy hisobotlar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, va xalqaro reytinglar asos qilib olindi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axloqiy boshqaruv va halol innovatsiya tamoyillarini texnologik rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish O'zbekiston sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga hissa qo'shmoqda. 2020–2024 yillarda mamlakatda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirilgan sarmoyalar ulushi YaIMga nisbatan 0,13 foizdan 0,35 foizgacha oshgani [8], innovatsion faol bo'lgan korxonalar soni esa 1,8 barobarga ko'paygani kuzatildi [9]. Bu o'sish tendensiyasi axloqiy boshqaruv, ESG standartlari va korporativ javobgarlikning amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa xalqaro hamkorlikdagi texnologik loyihalarda shaffoflik, mas'uliyat va inson kapitalini qiymat yaratuvchi resurs sifatida qarash tendensiyasi kuchaygan. Shu asosda "halol innovatsiya" konsepsiyasi milliy innovatsion siyosatning muhim yo'nalishi sifatida shakllanmoqda.

1-jadval

O'zbekistonda innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari

Yil	Innovatsiyaga sarflangan mablag' (trln so'm)	YaIMdagi ulushi (%)	Innovatsiya faol tashkilotlar ulushi (%)
2020	4,1	0,4	9,2
2021	5,8	0,5	11,0
2022	7,2	0,6	12,8
2023	8,9	0,7	14,1
2024	10,4	0,8	15,3

Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan[8].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi to'rt yilda innovatsiyaga ajratilayotgan mablag'lar 2,5 barobarga oshgan. Biroq, innovatsiya jarayonlarida axloqiy boshqaruv va korporativ mas'uliyat tamoyillarining yetarlicha joriy etilmagani samaradorlikni cheklamoqda.

2-jadval

Axloqiy boshqaruv va ESG ko'rsatkichlari ta'siri

Yil	Korxonalarda ESG hisobot yurituvchilar ulushi (%)	Xalqaro grantlar soni	Texnologik eksport (mln. AQSh dollari)
2020	8,5	42	240
2021	11,3	57	315
2022	14,9	69	420
2023	18,1	85	512
2024	22,6	97	610

Jadval muallif tomonidan Davlat statistika qo'mitasi, Innovatsion rivojlanish agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan[9].

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024 yillar davomida O'zbekistonda axloqiy boshqaruv va ESG tamoyillarini joriy etgan korxonalar ulushi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Agar 2020 yilda ESG hisobot yurituvchi korxonalar ulushi jami korxonalarning 8,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 22,6 foizga yetgan. Bu 2,6 barobarlik o'sish ESG standartlariga bo'lgan amaliy qiziqishning va korporativ mas'uliyat darajasining ortib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, xalqaro grantlar soni ham 2020 yildagi 42 tadan 2024 yilda 97 tagacha ko'paygan. Bu holat axloqiy boshqaruv va shaffof ESG hisobotlarining xalqaro sheriklar va donorlar ishonchini oshirganini ko'rsatadi. Ya'ni, axloqiy boshqaruv tamoyillariga rioya qilgan korxonalar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirgan.

Texnologik eksport hajmi ham shunga mos ravishda o'sishda bo'lib, 2020 yilda

240 mln. AQSh dollaridan 2024 yilda 610 mln. dollarga yetgan. Bu 2,5 barobarlik o'sish ESG va halol boshqaruv siyosatlarining iqtisodiy samarasini aks ettiradi. Ya'ni, axloqiy va barqaror boshqaruv amaliyoti texnologik mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish orqali tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko'rsatadi.

Muhokama

Axloqiy boshqaruv va halol innovatsiya konsepsiyasi — bu faqat korporativ madaniyat emas, balki texnologik siyosatning muhim elementi hisoblanadi. Axloqsiz innovatsiyalar qisqa muddatli foyda bersa-da, uzoq muddatda ishonch va investitsiya muhitini zaiflashtiradi [10]. Shu bois, davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsiyalarning shaffofligi, intellektual mulk muhofazasi va ijtimoiy samaradorlikka oid mezonlar belgilash zarur. Xorijiy tajribalarda (Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya) halol innovatsiya tamoyillari davlat grantlari va texnologik loyihalarni moliyalashtirishda asosiy mezon sifatida qabul qilingan [11].

O'zbekistonda ham 2024 yilda "Innovatsiya va texnologiyalarni yetishtirish markazi" tashkil etilib, axloqiy standartlar va intellektual mulk muhofazasi bo'yicha milliy qoidalar ishlab chiqiladi [12].

Xulosalar

- Texnologik rivojlanish strategiyalarida axloqiy boshqaruv va halol innovatsiya tamoyillarini integratsiya qilish iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda jamiyat ishonchini mustahkamlaydi.
- ESG omillarini milliy innovatsion siyosatiga joriy etish — xalqaro investitsiya oqimini jalb qilish va texnologik eksportni kengaytirish uchun muhim sharoit yaratadi.
- Davlat va xususiy sektorda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda "ahloqiy ekspertiza" tizimini joriy etish zarur.
- Axloqiy innovatsiya standartlarini ta'lim, ilmiy tadqiqot va tadbirkorlik sohalarida ommalashtirish barqaror texnologik rivojlanishning kafolatidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Dreksler E. Mashinı sozidaniya: gryadumaya era nanotexnologiy. Nyu-York, 2020.https://web.mit.edu/cortiz/www/3.052/3.052CourseReader/3_EnginesofCreation.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Porter M., Kramer M. Sozdanie obııix sennostey. Harvard Business Review, 2021.<https://www.communitylivingbc.ca/wp-content/uploads/2018/05/Creating-Shared-Value.pdf>
4. Danilov A.N., Yakovleva Ye.G. Etika innovatsionnogo upravleniya. Moskva, 2022.
5. Yaxshiboev R.E., Yermetov E.Ya. "Sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llashda axloqiy jihatlar." InnoIST jurnali, 1-jild, 5-son, 2024. URL: <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/464>

6. Chen X., Ryoo Johan. "O'zbekistonda barqaror qishloq xo'jaligi innovatsiyalari va Helix modellari." Asian Business Research Journal, 10-jild, 1-son, 2025.
https://www.researchgate.net/publication/387904512_Sustainable_Agricultural_Innovation_in_Uzbekistan_Through_the_Helix_Models
7. Ashurov Z. A. Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va unitakomillashtirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2017 yil.
https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20_Z_Ashurov%20t.pdf
8. Innovatsion rivojlanish agentligi hisobotlari, 2020–2024 yy.
<https://innovation.gov.uz/opendata/category/agentlik-ish-rejasi-va-hisoboti#!>
9. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024.
<https://stat.uz/uz/>
10. PROON. Otchet ob eticheskix innovatsiyax i ustoychivom razvitii. 2023.
<https://www.undp.org/eurasia/publications/undp-annual-report-2023>
11. OECD. Responsible Innovation Framework. Paris, 2022.
<https://www.oecd.org/en/topics/responsible-innovation.html>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Innovatsiya markazi ma'lumotlari, 2024.
<https://lex.uz/ru/docs/5607138?ONDATE=08.08.2024>
13. Ёрматов, И. Т. Актуальные проблемы повышения инновационного потенциала Узбекистана. Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук 11.5 (2017): 70-73.
<https://scholar.google.com/citations?user=8jkmXdUAAAAJ&hl=ru>
14. Ерматов, И. Т. Некоторые проблемы модернизации промышленных предприятий / И. Т. Ерматов // Научно-технический прогресс: социальные, технические и общественные факторы: Сборник статей. – Москва: ООО "ИМПУЛЬС", 2018. – С. 133-137. – EDNXTALBJ. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35245208>
15. Yormatov I.T (2022). O'zbekistonda iste'mol bozorini to'ldirishda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'rni. Eurasian journal of law, finance and applied sciences, 2(11), 99–102. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7161744>